



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
V-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
V-qism*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
<b>I. R. Berdikulova</b>	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
<b>Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li</b>	
<b>Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
<b>Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ .....	38
<b>Абдуллаева М.Б.</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
<b>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
<b>Niyozov Zuxur Davronovich</b>	
<b>Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО .....	58
<b>Худойкулова Дилора Дилмуродовна</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
<b>Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi</b>	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
<b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	77
<b>Karimova Dilafruz Sadridin qizi</b>	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
<b>Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI .....	89
<b>Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
<b>Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi</b>	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI .....	94
<b>Otarbayev Zamir Zairovich</b>	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	100
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
<b>Ho'jamov Akbar Bahriddinovich</b>	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
<b>Djumayev Askar Xaydarovich</b>	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
<b>Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li</b>	
<b>Qahhorova Nargiza Qahramonovna</b>	
<b>Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li</b>	
<b>Jamilov Firdavs Otabek o'g'li</b>	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ.....	129
<b>Норкулов Хабибулло</b>	
<b>Абдурасулова Шахзода</b>	
<b>Бахриддинов Дилшодбек</b>	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV.....	135
<b>Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	138
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ.....	147
<b>Джуманов А.А.</b>	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK VAHOLASH.....	157
<b>Masharipova Durdona Ulug'bekovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
<b>Джуманов А.А.</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
<b>Rahmanov Furqat Temirovich</b>	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	179
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH .....	186
<b>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</b>	



# TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELARI VA KOMPLAYENS-NAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

**Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0004-5121-9261

Email: sh.fayziyev-2025@yandex.ru

**Annotasiya:** Mazkur maqolada tijorat banklarida risklarni boshqarish va komplayens-nazorat tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Bank risklarining funksional-tuzilmaviy tasnifi ishlab chiqilib, ularning moliyaviy, nomoliyaviy va tizimli tarkibiy qismlari kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, komplayens-nazorat tizimining tarkibiy elementlari hamda “uch mudofaa liniyasi” modeli asosida risklarni samarali boshqarish mexanizmi yoritilgan. Tadqiqot natijalari banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va risklarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit soʻzlar:** tijorat banklari, risklarni boshqarish, komplayens-nazorat, bank risklari, risk-menejment, ichki nazorat, moliyaviy barqarorlik, bank boshqaruvi.

**Аннотация:** В данной статье изучаются теоретические и методологические основы совершенствования системы управления рисками и контроля за соблюдением нормативных требований в коммерческих банках. Разработана функциональная и структурная классификация банковских рисков, а также проведен всесторонний анализ их финансовых, нефинансовых и системных компонентов. Выделены также структурные элементы системы контроля за соблюдением нормативных требований и механизм эффективного управления рисками на основе модели «трех линий защиты». Результаты исследования служат для обеспечения финансовой стабильности банков и минимизации рисков.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, управление рисками, контроль соблюдения нормативных требований, банковские риски, управление рисками, внутренний контроль, финансовая стабильность, банковское управление.

**Abstract:** This article studies the theoretical and methodological foundations of improving the risk management and compliance control system in commercial banks. A functional and structural classification of bank risks has been developed, and their financial, non-financial and systemic components have been comprehensively analyzed. The structural elements of the compliance control system and the mechanism for effective risk management based on the “three lines of defense” model are also highlighted. The results of the study serve to ensure the financial stability of banks and minimize risks.

**Keywords:** commercial banks, risk management, compliance control, bank risks, risk management, internal control, financial stability, bank governance.



## KIRISH

Jahon moliya tizimida globallashtirish jarayonlarining tezlashuvi, moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish ehtiyojini yanada oshirmoqda. Zamonaviy bank tizimida moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi, xalqaro moliyaviy aloqalarning kengayishi hamda bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning murakkablashuvi kontekstida komplayens-nazorat tizimining samarali ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayon risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va kamaytirish choralarini o'z ichiga oladi. Bazil bank nazorati qo'mitasi tavsiyalariga ko'ra, samarali risk-menejment tizimi bankning korporativ boshqaruvi, ichki nazorat va komplayens-nazorat mexanizmi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Komplayens-nazorat, ya'ni faoliyatning qonunchilik, xalqaro standartlar va ichki siyosatga muvofiqligini ta'minlash tizimi, banklarda huquqiy, operatsion va reputatsion risklarni oldindan aniqlash hamda kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, komplayens xizmati strategik qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etib, bankning barqaror va samarali faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Komplayens-nazorat tizimi bank faoliyatining amaldagi qonunlar, xalqaro standartlar, ichki korporativ siyosat va etik me'yorlarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmi sifatida shakllantiriladi. U banklarda huquqiy, operatsion, reputatsion va moliyaviy risklarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur masalaning nazariy va metodologik jihatlarini xorijiy iqtisodiy maktablarda keng o'rganilgan. Xususan, bank risklarini boshqarish, moliyaviy nazorat mexanizmlari va komplayens tizimining institutsional asoslari Talaoui Y. [2] va Nyanga C. [3] tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Keyinchalik Fahey L. [4], Dun Markusen va Jon Danning tadqiqotlarida korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlari yanada takomillashtirilgan. Ushbu yondashuvlar banklarda risklarni tizimli tahlil qilish, moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish hamda strategik qarorlarni axborot asosida qabul qilish imkonini beradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida Beshmkov M.A. [6], Isayeva N.A. [7], Serebryakova T.Yu. [8] va boshqa olimlar banklarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, risklarni erta aniqlash va boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishni tadqiq qilgan. Shuningdek, moliyaviy monitoring, shubhali operatsiyalarni aniqlash va komplayens-nazoratning tashkiliy-uslubiy asoslari yoritilgan.

Mahalliy olimlar — Burxanov A.U. [11], Abulqosimov X.P. [12], Pardayev M.K., Aminov Z.Yu. bank tizimining barqarorligi, moliyaviy xavfsizlik va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini kompleks qo'llash, uni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash va metodologik modellarini rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Shu sababli tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimidan samarali foydalanish, risklarni baholash va prognoz qilish uchun ilmiy asoslangan metodologiyani takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida e'tirof etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar Bazil qo'mitasi tavsiyalari, FATF standartlari, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari, ilmiy adabiyotlar va tijorat banklarida komplayens-nazorat hamda risklarni boshqarish bo'yicha mavjud ilmiy manbalarni o'rganish orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish, tasniflash va mantiqiy tahlil usullari yordamida baholanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, risk tushunchasiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Biroq aksariyat ta'riflarda riskning asosiy belgisi sifatida noaniqlik, ehtimollik hamda moliyaviy yo'qotish ehtimoli e'tirof etiladi. Shu sababli tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish va komplayens-nazorat tizimini rivojlantirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Quyidagi sxematik yondashuvdan


kelib chiqib, tijorat banklari risklari tarkibiy jihatdan uch asosiy blokka — sof, moliyaviy va investitsion risklarga ajratilgan holda tizimlashtiriladi.

Bunda sof risklar tarkibida tabiiy-resurs, ekologik, transport, mulkiy hamda ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq tavakkalchiliklar aks ettiriladi.

Shu bilan birga, moliyaviy risklar bloki ichki (chegara ichidagi) va tashqi (chegara) risklar kesimida guruhlanib, bank faoliyatining ichki operatsion muhitiga hamda tashqi makroiqtisodiy omillarga bog'liq risklarni ajratish imkonini beradi.

Investitsion risklar blokida esa foydaning kamayishi, daromadlilik darajasining pasayishi hamda turli ta'sir mexanizmlariga ega bo'lgan tavakkalchiliklar, shuningdek, kredit, birja va ssuda operatsiyalariga xos risklar alohida ajratilgan holda ifodalanadi.

Tadqiqot doirasida xalqaro standartlar hamda milliy ilmiy yondashuvlar sintezi asosida ishlab chiqilgan funksional-tuzilmaviy model orqali tijorat banklari risklarining o'zaro bog'liqligi, ularning moliyaviy va nomoliyaviy tarkibiy qismlari hamda boshqaruv subyektlari bilan o'zaro aloqadorligi kompleks tarzda aks ettiriladi (1-rasm).




1-rasm. Tijorat banklarida risk turlari<sup>1</sup>

Mazkur funksional-tuzilmaviy model tijorat banklari risklari tizimini o'zaro bog'liq uch asosiy blok — moliyaviy, nomoliyaviy hamda tizimli risklar kesimida kompleks tarzda tavsiflash imkonini beradi. Sxemaning yuqori qatlamida bank menejmentining bevosita boshqaruv obyekti sifatida namoyon bo'ladigan moliyaviy risklar, ya'ni kreditlash jarayonlari, moliya bozorlaridagi kon'yunkturaviy o'zgarishlar hamda likvidlilik bilan bog'liq tavakkalchiliklar xalqaro va milliy metodologiyalar sintezi asosida tizimlashtirilgan.

Komplayens-nazorat tizimining samarali faoliyat yuritishi uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning aniq konseptualizatsiyasini taqozo etadi. Mazkur elementlarni tizimli tahlil qilish asosida ularni uchta asosiy iyerarxik qatlamga — tashqi determinantlar, tizim yadrosi va natijaviy ko'rsatkichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy bank amaliyotida keng tatbiq etilayotgan hamda Bazel qo'mitasi tavsiyalari va Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA) metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan «uch mudofaa liniyasi» (three lines of defence) konsepsiyasi bank risk-menejmentining fundamental asosi hisoblanadi. Mazkur model bank tizimidagi mas'uliyat qatlamlarini aniq chegaralash barobarida, har bir tarkibiy darajaning funksional vakolatlarini iyerarxik tartibga soladi. Ushbu modelning tuzilmaviy algoritmi 2-rasmda aks ettirilgan (2-rasm).

1 Manba: muallif ishlanmasi.



2-rasm. Tijorat banklarida risklarning funksional-tuzilmaviy tasnifi<sup>2</sup>

Quyidagi 1-jadvalda aks ettirilganidek, tashqi omillar qatlami komplayens tizimining dinamik muhitini belgilaydi. Tizim yadrosi esa to'rtta fundamental funksional elementni — mustaqil vakolatlariga ega komplayens xizmati, risklarni baholash metodologiyasi, uzluksiz monitoring mexanizmi va xodimlarni tizimli o'qitish dasturlarini o'zida birlashtiradi (1-jadval).

1-jadval.

Komplayens-nazorat tizimining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi arxitekturasi<sup>3</sup>

TASHQI OMILLAR	TIZIM YADROSI	CHIQUISH NATIJALARI
Qonunchilik talablari va milliy hamda xalqaro normalar	Komplayens xizmati (institutsonal mustaqillik va aniq vakolatlar bilan ta'minlangan bo'linma)	Rahbariyat va nazorat organlariga taqdim etiladigan tizimli hisobotlar
Regulyativ talablar va Markaziy bank ko'rsatmalari	Risklarni baholash tizimi (miqdoriy va sifat tahlil usullari majmui)	Ichki va tashqi audit natijalari
Xalqaro standartlar (Basel III, FATF tavsiyalari va boshqalar)	Doimiy monitoring mexanizmi (operatsion faoliyat ustidan uzluksiz nazorat)	Tashkilotda etik madaniyat va institutsional xulq-atvorning shakllanishi
Korporativ etik me'yorlar va axloqiy kodekslar	Xodimlarni tayyorlash tizimi (muntazam treninglar va kasbiy sertifikatlash)	Bankning obro' - e'tiboring mustahkamlanishi hamda mijozlar va investorlar ishonchining ortishi

↻ Qayta aloqa va tizimni takomillashtirish sikli

2 Manba: Muallif tomonidan BCBS (Basel Committee on Banking Supervision) (2006), Mamatov (2022), Karimov (2025) asosida tuzilgan.  
 3 Manba: muallif ishlanmasi.




Ta'kidlash joizki, ushbu qatlamlar o'rtasida chiziqli emas, balki qayta aloqa tamoyili (feedback loop) asosidagi o'z-o'zini takomillashtirish sikli mavjud bo'lib, u yangi yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga operativ munosabat bildirish imkonini beradi. Sxema tahlili shuni ko'rsatadiki, modelning vertikal iyerarxiyasi tashqi regulyatorlardan boshlanib, bankning oliy boshqaruv organlariga qadar cho'ziladi.

Birinchi mudofaa liniyasi bevosita operatsion bo'linmalar (kreditlash, kassa amaliyotlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish, IT-departamenti) zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ular biznes-jarayonlar kontekstida birlamchi nazorat subyektlari sifatida namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, ushbu bosqich eng ko'p resurs talab qiluvchi, biroq eng muhim himoya qatlami hisoblanadi, zero barcha asosiy bank operatsiyalari aynan shu bo'g'inda amalga oshiriladi.

Ikkinchi liniya — komplayens va risk-menejment xizmatlari nazorat metodologiyasini shakllantirish, AML/KYC protokollarini yuritish va regulyativ hisobotlarni tayyorlash uchun mas'ul hisoblanadi. Uchinchi bo'g'in vazifasini bajaruvchi ichki audit xizmati esa birinchi ikki liniyadan mutlaq mustaqil ravishda obyektiv tekshiruvlarni amalga oshiradi va hisobdorlikni bevosita Kuzatuv kengashiga ta'minlaydi (3-rasm).

### Tashqi regulyator organlari va mustaqil audit subyektlari (Markaziy bank, mustaqil auditorlar, FATF)



3-rasm. Bank faoliyatida komplayens-nazoratning “uch mudofaa liniyasi” modeli<sup>4</sup>

Muallif fikricha, tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimi — bu bank faoliyatida qonunchilik hujjatlari, regulyator talablari, xalqaro standartlar, ichki me'yoriy hujjatlar va korporativ etika qoidalariga rioya etilishini ta'minlash orqali huquqiy, moliyaviy, operatsion va reputatsion risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish hamda minimallashtirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan ichki nazorat va risklarni boshqarish mexanizmidir.

#### Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan risklar ko'p qirrali va murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bog'liq bo'lib, ularni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Risk tushunchasiga oid ilmiy qarashlar tahlili risklarning asosiy xususiyatlari sifatida noaniqlik, ehtimollik va moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli ustuvor ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Shu asosda tijorat banklari risklari sof, moliyaviy va investitsion risklar guruhlariga ajratilib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda bank faoliyatiga ta'sir mexanizmlari tizimli ravishda yoritildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan risklarning funksional-tuzilmaviy tasnifi bank faoliyatida mavjud moliyaviy, nomoliyaviy va tizimli tavakkalchiliklarni kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv risklarni identifikatsiya qilish, monitoring qilish va boshqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, komplayens-nazorat tizimining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, tizimning tashqi omillar, ichki institutsional mexanizmlar hamda natijaviy ko'rsatkichlar asosida faoliyat yuritishi asoslab berildi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan “uch mudofaa liniyasi” modeli tijorat banklarida risklarni boshqarish va komplayens funksiyalarini samarali tashkil etishning muhim institutsional mexanizmi

4 Manba: muallif ishlanmasi.



ekanligi aniqlandi. Tadqiqot yakunida komplayens-nazorat tizimining mualliflik ta'rifi taklif qilinib, uning huquqiy, moliyaviy, operatsion va reputatsion risklarni kamaytirish orqali bank faoliyatining barqarorligi, shaffofligi hamda ishonchlilikini ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Natijalar tijorat banklarida zamonaviy risk-menejment va komplayens tizimlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/chemicals-global-market-report>
2. Talaoui, Y. and Kohtamäki, M. (2020), «35 years of research on business intelligence process: a synthesis of a fragmented literature», Management Research Review, Vol. ahead-of-print No. ahead-ofprint. DOI: <https://doi.org/10.1108/MRR-07-2020-0386>;
3. Nyanga, C., Pansiri, J. and Chatibura, D. (2019), «Enhancing competitiveness in the tourism industry through the use of business intelligence: a literature review» // Journal of Tourism Futures. Vol. 6 No. 2, pp. 139-151. DOI: <https://doi.org/10.1108/JTF-11-2018-0069>;
4. Fahey, L. (2007), «Connecting strategy and competitive intelligence: refocusing intelligence to produce critical strategy inputs», Strategic Direction, Vol. 23 No. 4. DOI: <https://doi.org/10.1108/sd.2007.05623dad.003>;
5. Platt, W. Strategic Intelligence Production. Basic Principles. – New York: Frederic A. Praeger, 1957.
6. Бещмков М.А. “Экономическая безопасность промышленного предприятия в условиях кризисного развития.” Менеджмент в России и за рубежом, 2000, №2, 7–17;
7. Исаева Н.А. “Экономическая безопасность предприятия.” Вестник Екатеринбургского института, 2009; Устинова Л.Н. “Экономическая безопасность предприятия: анализ, структура, модель.” Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 2011, №45(138), 67–71;
8. Серебрякова Т.Ю. “Сущность и подходы к определению экономической безопасности предприятий.” Вестник НГУЭУ, 2015; Корелин В.В. “Инструменты обеспечения экономической безопасности промышленного предприятия.” 2016;
9. Доронин А. И. Бизнес-разведка. – М.: Ось-89, 2010. – 704 с.;
10. Лемке Г.Э. Коммерческая разведка для конкурентного превосходства. – М.: Московская Финансово-Промышленная Академия, 2011. – 352 с.;
11. Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Иқтисодиёт. 2019, 164 б.;
12. Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. Т.: Академия, 2006, 111 – б.
13. Mamatov, A.A. (2022). Tijorat banklarining faoliyatidagi risklar, uning mohiyati va turlari. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(11), 37–41. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7238093>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>